

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOV FARXAD FAXRIDDINOVICH

O‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING
LINGVOMADANIY ASPEKTI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторский диссертации (DSc)

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Usmanov Farxad Faxriddinovich

O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti 3

Усманов Фархад Фахриддинович

Лингвокультурный аспект узбекских национальных ценностей..... 36

Usmanov Farkhad Fakhriddinovich

Linguistic aspect of Uzbek national values 73

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 75

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

USMANOV FARXAD FAXRIDDINOVICH

O‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING
LINGVOMADANIY ASPEKTI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Andijon – 2024

et.uz) joyl

CLIM

professor

atovich

professor

Salievna


sonovna

k tili va

2023.Fil.6

jlisida bo

et ko'ch



...sitet ko'ch

1991)

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va madaniyatning munosabatdorligini yoritish, tilga kognitiv va madaniy hodisa sifatida yondashuv XXI asr fanining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirda nafaqat madaniyatlararo, balki bir madaniyat doirasida ham muloqotni to'g'ri tashkil etish, o'zaro tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun millatning qadriyatlari tizimidan xabardor bo'lish taqozo etiladi. Bunday holat bir madaniyat doirasida ham ahamiyatli bo'lib, ayniqsa, hozirgi kuzatilayotgan turli madaniyatlardagi noan'anaviy qadriyatlarning targ'ibi kuchaygani ortidan millatning tayanch qadriyatlariga urg'u berish, ularni o'rganishga amaliy ehtiyoj mavjud. Bunda tadqiqotning asosiy quroli tildir.

Dunyo tilshunosligiga xos xususiyatlar antropotsentriklik va poliparadigmallik bo'lib, bunda u lisoniy shaxs xususiyatlariga tayanadi. Shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri uning madaniyatidir. Shu nuqtayi nazardan har qanday milliy madaniyat, uning voqelanish shakllari, lisoniy vositalar ortida yashiringan madaniy me'yor va stereotiplarni aniqlash uning qadriyatlar tizimini aniqlash bilan birga kechadigan jarayondir. Shu bois ushbu masalaga falsafiy, sotsiologik va lisoniy nuqtayi nazardan yondashuvlar turli darajadagi ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati millatning qadriyatlari bilan bog'liq tadqiqotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Zero, "bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurasha olishi mumkin"². Bu tilimizni milliy qadriyatlarning ifodachisi sifatida lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish, uning betakror jozibasini ko'rsatishga qaratilgan izlanishlarni ham faollashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>

² Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 11.

“Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Qadriyatlar *lingvomadaniy hodisa* sifatida qaralgan tadqiqotlar Garvard universiteti (Harvard University, AQSh), Kembridj universiteti (University of Cambridge, Buyuk Britaniya), Yangi Sorbon universiteti (Université Sorbonne Nouvelle, Fransiya), Quddus yahudiy universiteti (The Hebrew University of Jerusalem, Isroil) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (МГУ, Россия), Rossiya Fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti (Институт языкознания РГГУ, Россия), Sankt-Peterburg davlat universiteti (СПбГУ, Россия), A.S.Pushkin nomidagi rus tili davlat instituti (Государственный институт русского языка имени А.С.Пушкина, Россия), Rossiya Fanlar Akademiyasi V.V.Vinogradov nomidagi rus tili instituti (Институт русского языка имени В.В.Виноградова РГГУ, Россия), Rossiya gumanitar universiteti (РГГУ, Россия), Tomsk davlat universiteti (Rossiya), Vitebsk davlat universiteti (Belarus respublikasi)da olib borilgan va olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining aksiologik tadqiqi, qadriyatlarning lingvomadaniy talqiniga oid izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: aksiolingvistikaning nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqilgan va turli etnik va ijtimoiy guruhlariga tegishli bo‘lgan lingvomadaniy qadriyatlarni aniqlash va tizimlashtirishga oid ishlar amalga oshirilgan (Rossiya Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Tomsk davlat universiteti, Rossiya); aksiolingvistikaning tadqiq metodi sifatida etnosemiometriya metodi ishlab chiqilgan (Irkutsk davlat tilshunoslik universiteti, Rossiya); umumbashariy qadriyatlar tarkibi va millatlararo farqlanishi tajriba usullari orqali aniqlangan (Quddus yahudiy universiteti (The Hebrew University of Jerusalem, Isroil)); madaniy qadriyatlarning lisoniy aspekti o‘rganilgan (Garvard universiteti AQSh, Kembridj universiteti, Buyuk Britaniya); tilning qadriyatlar tizimini shakllantirish va uzatishdagi rolini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan, shuningdek, madaniy qadriyatlarning tilning tuzilishi va muloqotga ta’siri o‘rganilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya); madaniy qadriyatlar va mental qoidalarning tarjima strategiyalari va til vositalari tanloviga ta’siri ko‘rsatilgan, frazeologik birliklar aksiologik jihatdan o‘rganilgan, aksiologik lug‘atlar yaratilgan (Qozon Federal

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.researchgate.net/>, <https://scholar.google.com/>, <https://www.dissercat.com/>, <https://medialing.ru/>, <https://cyberleninka.ru/>, <https://www.proquest.com/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

universiteti, Rossiya); til birliklari orqali qadriyatlarning hududiy xoslanishi ochib berilgan (Vitebsk davlat universiteti, Belarus respublikasi).

Jahon zamonaviy tilshunosligida qadriyatlarning lingvistik aspektini yoritish metodlarini takomillashtirish, ularning biror jamoa uchun xos bo'lgan iyerarxiyasini aniqlash, shuningdek, tilning individual va jamoaviy qadriyatlarni qay tarzda aks ettirishi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qadriyat fenomeni keng qamrovli bo'lib, falsafa, madaniyatshunoslik va tilshunoslik kabi fanlar uchun qiziqish obyekti bo'la oladi. Antik davrda Arastu qadriyatlarning “qadrlanuvchi” (xushxulqlik, qalb, aql), “maqtovga sazovor” (maqtovga arziydigan xatti-harakatlar) va “ehtimoliy” (kuchlilik, go'zallik, boylik, hukmronlik) turlarini ajratadi⁴. Falsafada bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis faylasuf va sotsiologi G.Lotse tomonidan kiritilgan⁵. Keyinchalik V.Vindelband va G.Rikkertlar ilk bor qadriyatlar nazariyasini yaratib, qadriyatlarni falsafada markaziy o'ringa ko'tardilar va ularni madaniyat fenomeni sifatida ta'rifladilar⁶. 1960-1970-yillarda M.Rokich o'z asarida barcha qadriyatlarni ikki toifaga: terminal (individual mavjudlik maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan) va instrumental (xatti-harakatlar usullari va ushbu maqsadlarga erishish usullarini belgilaydigan) qadriyatlarga ajratdi⁷. Zamonaviy tadqiqotlardan Sh.Shvarsning tadqiqotini ko'rsatish mumkin. Uning dunyoning 54 mamlakatida o'tkazilgan tajribalar natijasi bo'lgan “*Basic Human Values: Their Content and Structure across Cultures*”⁸ nomli tadqiqoti M.Rokichning terminal va instrumental qadriyatlar konsepsiyasiga asoslanadi. Uning fikricha, qadriyatlar ikki darajada mavjud bo'ladi: normativ ideallar hamda tashqi muhitdan birmuncha mustaqil bo'lgan individual ustuvorliklar. O'zbek faylasuflaridan Q.Nazarov, E.Yusupov, J.Tulenov, A.Muxtorov, M.Mavrulova kabi olimlarning ishlarida aksiologiyaning nazariy masalalari, uning sharqona ildizlari va zamonaviy yo'nalishlari, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati, qadriyatlar tarixi, ularga zamonaviy tahdidlar, jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashda milliy qadriyatlarning o'rnini yoritilgan⁹.

Lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishi yuzaga kelgandan boshlab qadriyatlarga madaniyat va tilni bog'lovchi fenomen sifatida qarash kuchaydi. Masalan, N.F.Alefirenko lingvomadaniyatshunoslik muammolarini qadriyat, baho va mazmun kategoriyalarisiz o'rganish mumkin emasligini aksioma hisoblaydi¹⁰.

⁴ Qarang: Сергиенко Н.А. Лингвоментальная антропосфера как фактор категоризации лингвокультуры: Дисс... док. филол. наук. – М., 2023. – С. 271.

⁵ Солонин Ю.Н., Каган М.С. Культурология: Учебник. – М.: Высшее образование, 2007. – С. 135.

⁶ Qarang: Виндельбанд В. Философия в немецкой духовной жизни XIX столетия: Пер. с нем. Послел. П.С.Гуревича. – М.: Наука, 1993. – 103 с.

⁷ Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.

⁸ Schwartz Sh. (2005). Basic human values: Their content and structure across countries. URL: https://www.researchgate.net/publication/272160275_Basic_human_values_Their_content_and_structure_across_countries/citations

⁹ Назаров Қ. Ко'rsatilgan manba. – 102 б.; Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 193 б.; Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 32 б.; Маврулова М. Жамият маънавий барқарорлигини таъминлашда миллий-маданий қадриятларнинг ўрни: Фалс. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2022. – 53 б.

¹⁰ Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2014. – С. 99.

Ayniqsa, rus tilshunosligida qadriyatlar lingvomadaniyatshunoslik obyekti sifatida o'rganilgan ishlar talaygina¹¹.

Qardosh tillarda qadriyatlar tahlil etilgan ishlardan Qozon aksiolingvistik maktabi vakillari bo'lgan G.Bagautdinova¹², G.Bayramova, L.K.Bayramova va V.A.Boychuk¹³, G.Gibatova¹⁴, R.Yunusovalarning¹⁵ ishlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu ishlar asosan frazeologiya sohasida va chog'ishtirma planda amalga oshirilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda aksiologik konseptlarning mazmuni yoritilgan aksiologik lug'atlar ham yaratilmoqda¹⁶.

O'zbek tilshunosligida ham ushbu mavzuga aloqador ayrim ishlar qilingan. E.Ibragimovanning "O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi" nomli qo'llanmasini bu boradagi dastlabki ish deb hisoblash mumkin. Unda aksiologik baho lingvistik kategoriya sifatida o'rganilgan, bahoning predmet, belgi, harakat va holat yordamida ifodalanishi yoritilgan¹⁷. G.Komilovanning dissertatsiyasida maqollarda aks etgan baho va qadriyatning lingvistik omillari yoritilgan, qadriyat va aksqadriyatdagi olam lisoniy manzarasi, shaxs omili va lisoniy imkoniyatlar uyg'unligini asoslash, til birliklarining aksiologemalar, aksiologik mazmun ifodalashdagi qiymatini ochishga harakat qilingan¹⁸. B.Shamsematova o'z tadqiqotida milliy qadriyatlarni ifodalovchi til birliklarini lingvomadaniy aspektda o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslaydi va ingliz va o'zbek tillarida milliy qadriyatni ifoda etuvchi leksema, frazema, sintaksemalarning struktural-semantik va lingvomadaniy jihatlarini yoritadi¹⁹. Sh.Xudaykulova esa o'z dissertatsiyasida o'zbek tili aksiologik leksikasi tarkibiga qadriyatlarga ishora qiluvchi leksemalarni kiritib, o'zbek tili aksiologik leksikasining frazeologik birliklarda qo'llanilishi, hayot va o'lim konseptining metaforik-aksiologik talqini, shuningdek, Cho'lpon she'riyatida erk-erksizlik (erkin-qul) aksiologemalarining voqelanishini

¹¹ Язык и культура: Факты и ценности: К 70-летию Юрия Сергеевича Степанова / Отв.ред. Е.С.Кубрякова, Т.Е.Янко. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – С. 412. Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – 352 с.; Синячкин В.П. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ: Дисс... док. филол. наук. – М., 2011. – С. 31.; Бабаянц В. В. Ценности как объект лингвокультурологической рефлексии // URL: www.gramota.net/materials/2/2013/6-1/7.html; Славянские ценности в коммуникативном пространстве регионов. Колл. Монография / Под ред. В.А.Масловой, М.В.Пименовой. – Минск: УП "Энциклопедикс", 2017. – 268 с.; Двуреченская А.С., Яковлева Д.Е. Национальные и культурные ценности: сравнительный анализ понятий // Вестник Кемеровского государственного университета культуры и искусств. 2017. – №40. – С.113-118.; Сергиенко Н.А. Лингвоментальная антропосфера как фактор категоризации лингвокультуры: Дисс... док. филол. наук. – М., 2023. – 411 с.

¹² Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Казань, 2007. – 46 с.

¹³ Байрамова Л. К., Бойчук В. А. Аксиологический словарь фразеологизмов-библейзмов на русском, украинском, белорусском, болгарском, польском, чешском, английском, немецком, французском языках. – Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 351 с.

¹⁴ Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке // Вестник ОГУ 2011. №2 (121)/февраль. – С.127-132.

¹⁵ Юнусова Р.Ж. Аксиология фразеологизмов со значением 'гостеприимство / кунакчылык' в русском и татарском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 23 с.

¹⁶ Байрамова Л.К. Аксиологический фразеологический словарь русского языка. Словарь ценностей и антиценностей. – Казань: Центр инновационных технологий, 2011. – 376 с.

¹⁷ Ibragimova E. O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi: O'quv-uslubiy qo'llanma. – Farg'ona, 2018. – 84 b.

¹⁸ Комилова Г.Р. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 170 б.

¹⁹ Шамсемадова Б. Р. Инглиз ва ўзбек тилларида миллий қадриятларни ифода этувчи тил birlikларининг лингвомаданий тадқиқи (инглиз, америка ва ўзбек ёзувчилари асарлари асосида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 147 б.

o'rgangan²⁰. X.Uzakovning ishida esa "sadoqat" konseptini ifodalovchi birliklarda aks etgan qadriyat va bahoning aksiologistik belgilarini aniqlash maqsad qilingan²¹. Ammo o'zbek lingvomadaniyatshunosligida qadriyatlarning umumiy masalalari o'zining to'la tavsifini topmagani, ularning kompleks tasnifi amalga oshirilmagani va milliy mentalitetimizdan o'rin olgan qadriyatlarning iyerarxiyasi aniqlanmaganligi ushbu mavzu bo'yicha maxsus tadqiqotni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilini antropotsentrik tamoyil asosida tadqiq etish" mavzusiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspektini ochib berish hamda o'zbek mentalitetining ustuvor qadriyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qadriyatning falsafiy, sotsiologik va lisoniy ta'riflarini o'rganib, ularning o'zaro mushtarak jihatlarini aniqlash;

hozirgi zamon fanida, xususan, tilshunoslikda qadriyatlar masalasini o'rganish zaruratini asoslash;

qadriyat va konsept tushunchalarini ilmiy jihatdan farqlash;

hozirgi o'zbek lisoniy shaxsi nuqtai nazaridan o'zbek milliy qadriyatlari iyerarxiyasini tuzish;

ustuvor o'zbek milliy qadriyatlarining assotsiativ tahlili asosida ularga bo'lgan baho munosabatining o'ziga xos jihatlarini yoritish;

o'zbek milliy qadriyatlari orqali o'zbek milliy ijtimoiy stereotiplarini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini o'zbek til birliklarida voqelangan o'zbek milliy qadriyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini milliy qadriyatlarning lingvomadaniy aspekti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, falsafiy umumlashtirish, definitson, etimologik tahlil, triangulyatsiya, so'rovnoma, assotsiativ tajriba, lingvomadaniy interpretatsiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

madaniyatning jamiyatdagi vazifalaridan shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash vazifasi muhim ekanligi aniqlanib, lingvomadaniyatni baholashning xolislik va madaniyatshunoslik kategoriyalariga muvofiqlik tamoyillari ishlab chiqilgan;

madaniyatning asosida millat qadriyatlari yotishi, ularning san'at asarlari, an'ana, odatlar milliy til kabi turli voqelanish shakllari mavjudligi, til ular orasida ifoda universalligi bilan ustunlik qilishi dalillangan;

konsept va qadriyatlar o'zaro farqlanib, qadriyatlar moddiy emas, mental tabiatga ega ekanligi, shaxsning ularga bo'lgan munosabati qadriyatning asosini tashkil etishi dalillangan;

²⁰ Худайкулова Ш. С. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 150 б.

²¹ Uzakova X.K. "Sadoqat" konseptining aksiologistik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 50 b.

aksariyat o'zbek qadriyatlari uchun diniy-mifologik aksiogen vaziyat asos bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

o'zbek milliy qadriyatlari ierarxiyasida yuqori o'rinlarni *oila, sog'lik, tinchlik, ibodat* va *farzand* qadriyatlari egallashi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qadriyatlar tahlilida kontent-tahlil, freym tahlili, assotsiativ tahlil, narrativ tahlil; izohlash, tasniflash kabi etnografiya metodlari, shuningdek, psixologiyada faol qo'llanuvchi so'rovnoma, intervyu hamda introspeksiya kabi metodlar qo'llanishi mumkinligi, turli yondashuvlardan olingan natijalarni triangulyatsiya orqali jamlash imkoniyati mavjud ekanligi aniqlangan;

o'zbek mentalitetining *ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy, ekzistensial* hamda *hayotiy* qadriyatlari lingvomadaniy jihatdan tahlil etilgan;

lingvomadaniyatshunoslikda keng qo'llanishga kirib borayotgan aksiogen vaziyat, aksiologik marker, olamning qadriyatli manzarasi kabi terminlar ilmiy izohlangan;

o'zbek mentalitetining tayanch qadriyatlari assotsiativ tahlil etilib, maishiy ong egasida ularning qaysi jihatlariga e'tibor yuqori ekani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, tadqiq qilingan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy hamda uslubiy manbalardan olingani, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, antropotsentrik paradigma talablaridagi tadqiqot usullaridan foydalanilganlik, qadriyatlar tahlilida o'zbek tili tabiatidan kelib chiqilganlik, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga keng joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oddiy til tashuvchisi – hozirgi o'zbek lisoniy shaxsi nuqtayi nazaridan o'zbek milliy qadriyatlari aniqlangani, ularning lingvomadaniy aspekti yoritilgani, milliy qadriyatlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil etish tamoyillari ishlab chiqilgan va shu asosda millat mentalitetiga xos bo'lgan me'yor va stereotiplar aniqlanganida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'zbek tilining tayanch qadriyatlari asosida amalga oshirilgan lingvomadaniy tahlillar lingvomadaniyatshunoslikka oid monografiyalar, o'quv qo'llanmalari yaratishga, "Kognitiv tilshunoslik" va "Lingvomadaniyatshunoslik" fanlaridan ma'ruza matnlari, o'quv dasturlarining mukammallashishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspektini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

madaniyatning jamiyatdagi vazifalaridan shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash vazifasi muhim ekani hamda ishlab chiqilgan lingvomadaniyatni tadqiq etish xolislik va madaniyatshunoslik kategoriyalariga muvofiqlik tamoyillari xususidagi xulosalardan *aksiolingvistika, milliy qadriyatlar, lingvomadaniy kod* kabi terminlarni izohlashda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan IL-21071156 raqamli "Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'atini tuzish va nashr qilish (lug'atning mobil ilovasi va veb-saytini yaratish)" nomli amaliy loyihasi asosida audioma'lumotlar to'plamini tayyorlashda

foydalanilgan (O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining 2024-yil 28-fevraldagi 18-son ma‘lumotnomasi). Natijada zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilayotgan terminlar izohi ilmiy jihatdan mukammallashtirilgan;

madaniyatning asosida millat qadriyatlari yotishi, ularning san‘at asarlari, an‘ana va odatlar kabi turli voqelanish shakllari mavjudligi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan S-ECAGD-18-CA-0067 (PO20002335) raqamli “FY 2018 English Access Microscholarship Program” nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 20-maydagi 583/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada til o‘rganuvchilarda o‘zga madaniyatni tushunishda yuzaga keluvchi kognitiv dissonans holatlari yo‘qotilib, ta‘lim jarayoni samaradorligi ortgan;

qadriyatlar moddiy emas, mental tabiatga egaligi, shaxsning ularga bo‘lgan munosabati qadriyatning asosini tashkil etishi haqidagi xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan M-OT-2020-3 raqamli “Tarjimashunoslik va lug‘atshunoslik innovatsiya markazini tashkil etish asosida lug‘at va matn tarjimoni intellektual platformasini yaratish” nomli amaliy loyiha asosida audioma‘lumotlar to‘plamini tayyorlashda foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 11-maydagi 32-01-540-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur xulosalar tarjima jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam bergan hamda ushbu omillar hisobga olib o‘g‘irilgan matnning sifatini oshirib, uning adekvat persepsiyasini ta‘minlagan;

aksariyat o‘zbek qadriyatlari uchun diniy-mifologik aksiogen vaziyat asos bo‘lib xizmat qilishi xususidagi xulosa va tavsiyalardan BV-Atex-2018-(143) raqamli “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi davlat amaliy granti loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 15-fevraldagi 04/1-384-son ma‘lumotnomasi). Natijada grant loyihasi doirasida tayyorlangan “O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarining urg‘uli lug‘ati” ko‘zi ojiz talabalarning ehtiyojlariga moslanib, terminlarning o‘zlashtirilishi yengillashtirilgan;

o‘zbek milliy qadriyatlari iyerarxiyasi *oila, sog‘lik, tinchlik, ibodat* va *farzanddan* iborat ekanligi, shuningdek, qadriyatlarning yashirin ifodalari, ularni aniqlashda va talqin etishda milliy, hududiy, subyektiv omillarni hisobga olish darkorligi xususidagi xulosalaridan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik” eshittirishini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston – 24 teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 8-fevraldagi 03-09-71-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu eshittirish uchun tayyorlangan materiallarning ilmiy ahamiyati ortib, mukammallashgan, qiziqarliligi, hayotiyliigi va ilmiy dalillarga boyligi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli qisqartmalar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 228 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigma mahsuli sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda madaniyat fenomeni, lingvomadaniyatshunoslik va uning tayanch tushunchalari xususidagi nazariy qarashlarga aniqlik kiritilgan, uning metodologik muammolari hamda madaniy me'yor va stereotiplarning voqelanish shakllari yoritilgan. Ushbu bobning birinchi fasli “Zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda madaniyat fenomeni” deb nomlangan bo'lib, ushbu faslda madaniyat kognitiv fanlar ta'sirida insonning xatti-harakatlarini boshqaruvchi ichki konseptual sistema sifatida talqin etilayotganligi, madaniyat inson faoliyatining natijasi ekanligi, uning vazifalari sirasida kommunikativ, qadriyatli va regulyativ vazifalar jamiyatni bir butunga birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Zamonaviy tilshunoslikka xos xususiyatlar antropotsentriklik va poliparadigmallik bo'lib, bunda u lisoniy shaxs xususiyatlariga tayanadi. Shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri, shubhasiz, uning madaniyatidir. “Kognitiv fanlar ta'sirida madaniyat insonning xatti-harakatlarini boshqaruvchi ichki konseptual sistema sifatida talqin qilinmoqda... til olamni qayta gavdalandirib, inson hayot kechiruvchi o'ziga xos reallikni yaratadi”²². Insonning xatti-harakatlari va nutqiga doimiy ta'sir etuvchi omil sifatida uning madaniyati tan olinadi va bu tabiiydir. Chunki “madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi”²³, “jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi”²⁴. Madaniyat – inson faoliyatining natijasi. Masalan, barg daraxtdaligida – tabiatning bir qismi, sevimli insonini xotirlab uzilgan xuddi shu barg – madaniyatning bir qismi; yo'l chetidagi tosh – tabiat, ajdodining qabri ustiga qo'yilgan xuddi shu tosh esa madaniyatdir”²⁵.

²² Маслова В.А. Концептуальные основы современной лингвистики: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2019. – С. 33.

²³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўн икки жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 434.

²⁴ Гулметов Э., Қобилжонов Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. – Тошкент, 2000. – Б. 6.

²⁵ Маслова В.А. Ko'rsatilgan manba. – Б. 33.

Bizningcha, madaniyat fenomenini tahlil etishda xolislik va madaniyatshunoslik kategoriyalariga muvofiqlik tamoyiliga amal qilish lozim.

Birinchi bobning “Lingvomadaniyatshunoslik va uning tayanch tushunchalari” deb nomlangan ikkinchi faslida ushbu sohaga tegishli bo‘lgan hamda turlicha talqinlariga ega bo‘lgan terminlar izohlangan, ular bizning nuqtayi nazarimizdan ta’riflangan.

Madaniyat ijtimoiy hodisa, millatning ijtimoiy qiyofasi bo‘lib, lingvomadaniyatshunoslik ana shu qiyofaning til bilan munosabatdorligini, milliy tilda moddiy va ma’naviy madaniyatning mujassamlanishini o‘rganuvchi tilshunoslik tarmog‘idir. Ushbu faslda olamning lisoniy manzarasi, ramz, idrok intizomi, stereotip, etalon, aksiologik baho, madaniy me’yorlar, madaniy kod hamda lingvomadaniy kod terminlari ta’riflangan.

Bobning uchinchi fasli “Lingvomadaniyatshunoslik: metodologiya muammolari” deb nomlangan bo‘lib, ushbu faslda lisoniy birliklarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish metodologiya va metodlari tahlil etilgan.

Til va madaniyat o‘zining semiosferasiga ega, tilda bular leksik va frazeologik birliklar, madaniyatda ramzlar, stereotip, urf-odat, an’ana-marosimlar, diniy rivoyatlar kabi turg‘unlik kasb etgan birliklardir. Shuningdek, til va madaniyat o‘zaro izomorf tizim – ular ko‘pgina o‘xshash xususiyatlarga ega: “1) madaniyat ham til kabi insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir; 2) madaniyat va til o‘zaro muloqotda mavjuddir; 3) madaniyat va til subyekti – har doim sotsium, shaxs yoki jamiyat; 4) me’yoriylik – til va madaniyat uchun xos xususiyat; 5) tarixiylik – madaniyat va til uchun xos bo‘lgan muhim xususiyat; 6) til va madaniyat uchun “dinamika-statika qarama-qarshiligi xos²⁶”.

Konsept tahlilida “til birliklari semantikasidan konseptga tomon” tahlil etish eng ishonchli yo‘l hisoblangani²⁷ kabi, madaniy mazmun bilan sug‘orilgan til birligining tadqiqi dastlab tilshunoslik metodlariga tayanadi. Shunday metodlarga, birinchi navbatda, etimologik va definitson tahlil metodlarini kiritish mumkin. Zero, nominatsiya jarayoni tasodifiy emas.

Hozirda lingvomadaniyatshunoslikda tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiologik tadqiqot metodlari qo‘llanilmoqda. Bular kontent-tahlil, freym tahlili, assotsiativ tahlil, narrativ tahlil; izohlash, tasniflash kabi etnografiya metodlari, shuningdek, psixologiyada faol qo‘llanuvchi so‘rovnoma, intervyu hamda introspeksiya kabi metodlardir. Bular, o‘z navbatida, lingvomadaniy tadqiqot obyektlariga nisbatan kognitiv-kommunikativ yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Chunki til olam haqidagi u yoki bu axborotni tashiydigan, faqatgina xabarni yetkazadigan vosita emas, u bilimlarni to‘plovchi, saqllovchi, ularni tizimga soluvchi tizim hamdir. Demak, *til kognitiv mexanizmlarda faol ishtirok etadi, kognitsiya quroliga aylanadi, olamning kognitiv manzarasi shakllanishiga ham ta’sir o‘tkazadi*. Tilning mohiyatini tushuntirishning antropotsentrik nuqtayi nazariga ko‘ra, uning birinchi vazifasi kognitiv vazifa bo‘lib, bunday yondashuv kognitiv tilshunoslikda ayniqsa samarali. Kognitiv vazifa inson uchun til – borliq

²⁶ Комарова З.И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2012. – С. 538.

²⁷ Антология концептов. Под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернина. Том 1. Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 10.

haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, umuman, bilishning eng muhim vositasi ekanligini anglatadi. U insonning aqliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu o'rinda insoniyat tarixida til vujudga kelguniga qadar uning tafakkuri xususida biror xulosa berishning imkoni bo'lmaganligini ham eslatib o'tish joiz.

Kognitiv-kommunikativ metod inson ongidagi mental jarayonlar va ularning natijalari lisoniy voqelanishini o'rganishga qaratilgan fanlararo tadqiq usullarining birlashuvidan iborat bo'lib, uning obyekti: 1) kognitsiya va muloqot (diskurs); 2) konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish; 3) konsept va kategoriya; 4) konseptosfera, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi va mentalitetdir²⁸. Sh.Xudaykulova qadriyatlarning baholovchilik xususiyati semantik-kognitiv yondashuvni taqozo etishini qayd etib, shunday yozadi: "Semantik tahlil matnni avtomatik tushunish algoritmi jarayonining ketma-ketligidagi bosqichdir, uning maqsadi semantik munosabatlarni aniqlash, matn xususida semantik tasavvur yaratishdan iborat. Ayni paytda, qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra kognitiv tahlilga moyildir, binobarin, kognitiv tahlil nafaqat atroflicha lisoniy tahlilni, balki nutq va til orqali qabul qilish, anglash jarayonlarini tadqiq etishni nazarda tutadi, bu esa xotira, tasavvur, hissiy bilish, taassurot kabi ruhiy jarayonlar borasidagi bilimlarni taqozo qiladi"²⁹.

Lingvomadaniyatshunoslikning xususiy metodlari sirasiga V.N.Teliya tomonidan ishlab chiqilgan ma'noning makrokomponentli modeli metodini kiritish mumkin. Yetti bosqichli mazkur model o'zida presuppozitsiya haqidagi ma'lumotlar, denotatsiya, ratsional baho, belgining motivatsion asosi, emotsional va emotiv baho hamda belgining qo'llanilishi bilan bog'liq baholar to'g'risidagi axborot bloklarini mujassamlaydi³⁰. V.N.Teliya, shuningdek, lingvomadaniy izohlash (kommentariy) metodini ishlab chiqqan bo'lib, uni ikki qismga ajratadi: 1) maxsus ko'nikmalar talab etmaydigan oddiy izohlash; bu oddiy til tashuvchisiga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotni qayd etadi; bunday izoh assotsiatsiyalar chegarasi, til birligida o'rinishgan madaniy mazmunlarni belgilaydi, madaniy konnotatsiya esa til tashuvchisining ongidagi ko'rsatma va buyruqlar yordamida ta'riflanadi; 2) chuqur izohlash – etalon, stereotip, ramz kabi maxsus terminlar bilan bog'liqlikda amalga oshadigan professional izohlash. V.P.Sinyachkin hamda V.A.Maslovaning ishlarida lingvomadaniyatshunoslikka triangulyatsiya yoki ko'pasoslilik metodining tatbiqini ko'rish mumkin³¹.

Triangulyatsiya (lot. *triangulum* – uchburchak) umumiy tomonlari bilan bog'langan uchburchaklar zanjirini qurish orqali geodeziya obyektlari koordinatalarini aniqlash metodi hisoblanadi³². Bunda "agar biror obyekt joylashgan o'rin noma'lum, ammo uning boshqa koordinatalari ma'lum bo'lgan uchta nuqta

²⁸ Комарова З.И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2012. – С. 461.

²⁹ Худайкулова Ш. Ўзбек тили аксиологик лексикасининг семантик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 28.

³⁰ Qarang: Маслова В.А. Концептуальные основы современной лингвистики : Учебное пособие. – М.: Флинта, 2019. – С. 136.

³¹ Синачкин В.П. Общечеловеческие ценности в русской культуре: лингвокультурологический анализ: Дисс... док. филол. наук. – М., 2011. – 303 с.; Славянские ценности в коммуникативном пространстве регионов: Коллективная монография / Под ред. В.А.Масловой, М.В.Пименовой. – Минск: УП "Энциклопедикс", 2017. – 268 с.

³² Большая российская энциклопедия 2004–2017.

URL:<https://old.bigenc.ru/physics/text/4201650?ysclid=lpfjzki3dd912862508>

bilan masofasini aniqlash imkoni bor bo'lsa, hisob-kitoblar yo'li bilan ushbu obyektning koordinatasini aniqlash mumkin"ligi nazarda tutiladi³³.

Lingvomadaniyatshunoslikda triangulyatsiya metodi muayyan lisoniy yoki madaniy hodisalarni tavsif yoki tahlil qilish uchun bir nechta manbalar yoki usullardan foydalaniladigan yondashuvni anglatadi. Bu usul tadqiqotchilarga turli manbalar yoki usullardan olingan ma'lumotlarni solishtirish orqali til hodisalari yoki madaniyat xususiyatlari haqida to'liqroq va aniqroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. V.Maslova, S.P.Samoylovaning to'rt muallif (Matfey, Mark, Ioann, Luka) tomonidan yetkazilgan, "Injil"ga asos bo'lgan xristianlarning "Muqaddas kitob"i ("Yevangliye")ni triangulyatsiyaning yorqin namunasi sifatida ko'rsatganini ma'qullaydi. "Triangulyatsiyaning boshqa yondashuvlardan, xususan, kompleks yondashuvdan prinsipial farqi shundaki, triangulyatsiya doirasida: a) barcha nazariyalar teng deb tan olinadi; b) har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari tan olinadi va baholanadi; c) ma'lumotlar, tadqiqotchilarning ishlari, nazariya va metodlar bir butunga birlashtirilmaydi, bir-biridan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi; d) lingvistik ma'lumotlarni tekshirish uchun unga aloqador bo'lgan boshqa fanlardan ma'lumotlar, metodlar, yondashuv va nazariyalardan foydalanish mumkin"³⁴.

Ko'rinadiki, lingvomadaniy tadqiqotlarda tilshunoslik, etnografiya, kognitiv tilshunoslik metodlari bilan birga, informantlardan so'rovnomalar olish va boshqa tajriba usullaridan foydalanish mumkin. Ushbu fan metodologiyasi uchun metodlar sintezi yoki triangulyatsiya usulini xarakterli xususiyat deb hisoblash mumkin.

Yana bir muhim jihat – lingvomadaniy tahlilda kompetensiya masalasidir. Masalan, bir guruh maqollardan qaynona bilan kelinning munosabatlari tarang ekanini tushunish mumkin: *Kelinga kelin bo'lmasang / Kelisop tegar boshingga; Kelinning siri kelgan yerida bilinar; Kampir o'laman deb qo'rqitar / Kelin – ketaman deb; Bir kelin oldim, o'tirdim / Ikki kelin oldim, tik turdim / Uch kelin oldim, yugurdim* (O'zbek xalq maqollari).

Bir qarashda ushbu maqollardan kelinning aynan qaynona bilan munosabatlari haqida xulosa chiqarish ilmiy asosga ega emas. Chunki komponent tahlil ma'lumotlariga ko'ra, kelin faqat qaynona uchun emas, qaynola uchun ham, aka uchun ham kelin ekani ayon. Keltirilgan maqollarda qaynona tilga olinmadi, shunday bo'lsa-da, biz barcha kontekstda negadir qaynonani "ko'ramiz". Buning sababi biz ega bo'lgan lingvomadaniy bilimlar zaxirasi (*фоновые знания*) – interpretatsiya bazasida. Aytmoqchimizki, o'zbek madaniyati bilan yaxshi tanish bo'lgan shaxs o'ziga xos madaniy kompetensiyaga ega bo'lib, ular yuzlab madaniy kontekstlardan hosil bo'lgan. Ushbu kontekstlar yuqoridagi maqollarda kelin bilan boshqalarning emas, aynan qaynona munosabatlarini kuzatishga interpretatsiya bazasi vazifasini bajaradi. Mazkur metod introspeksiya metodi bo'lib, ushbu usul izohlashda qo'l keladi. M.L.Kovshova rus tilidagi iboralarni lingvomadaniy jihatdan o'rganar ekan, lingvomadaniy tadqiqotlarda izohlash(kommentariy)ning o'rnini asoslaydi. Uning fikricha, lingvomadaniy izohlash oddiy va chuqur darajalarga bo'linadi. Izohning oddiy qismida madaniy konnotatsiya maqol va matallarda aks etgan madaniyatning me'yorlari, afsona va rivoyatlar, adabiy matnlar, tarixiy faktlar

³³ Маслова В.А., Пименова М.В. Коды лингвокультуры. Учеб. пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Флинта, 2016. – В. 34.

³⁴ Маслова В.А., Пименова М.В. Ko'rsatilgan monografiya. – В. 35.

yordamida izohlanadi. Unda introspeksiya metodi ustuvorlik qiladi. Chuqur izohlash esa til va madaniyatga oid tadqiqotlarga asoslanadi va unda ilmiy leksika va terminologiyadan foydalaniladi³⁵.

Birinchi bobning to'rtinchi fasli "Madaniy me'yor va stereotiplarning voqelanish shakllari" deb nomlagan bo'lib, unda madaniyat matnlariga ta'rif berilgan va ularning turlari tavsiflangan. Madaniyat matnlari deganda madaniyatda yaratilgan turli artefaktlar, san'at namunalari, afsona, an'ana va odatlarning barchasini tushunamiz. Ishning ushbu qismida tasviriy san'at asarlari, o'zbeklarning turli xatti-harakat va milliy odatlari misolida madaniyatning namoyon bo'lish shakllari ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, madaniyatning belgilar olami turfa bo'lib, V.Maslovaning tasnifida bunday birliklarga 1) tilning frazeologik fondi; 2) tilda ifoda topgan mifologizatsiyalashgan birliklar: arxetip va mifologema, marosim va irimlar, ritual va urf-odatlar; 3) tilning parameologik fondi; 4) etalon, stereotip, simvollar; 5) muloqot xulqi; 6) nutqiy etiket sohasi; 7) madaniyat kodlari; 8) madaniyat konseptlari; 9) madaniyat qadriyatlari kiradi³⁶. Til ular orasida ifoda universalligi bilan ajralib turadi. U o'zining belgilari bilan madaniyat belgilariga nisbatan ikkilamchi semiotik tizimga aylanadi. Uning universalligi u orqali har qanday mohiyatni ifodalash mumkinligidadir.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "**O'zbek madaniyatining qadriyatlari olamiga lingvomadaniy yondashuv**" deb nomlanib, uning birinchi fasli "Lingvomadaniy konsept va qadriyat" masalasiga bag'ishlangan.

Ma'lumki, *konsept* terminiga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, uni kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik vakillari turlicha ta'riflab keladilar. Hozirda *konsept* terminiga lingvokognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik va teolingvistik nuqtayi nazardan yondashuvlarni ajratish mumkin. Ularda masalaga yondashuv yo'nalishlari farqlanadi: lingvokognitiv konseptga individual ongdan madaniyatga, lingvomadaniy konseptga madaniyatdan individual ongga yo'nalganlik xos. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept "mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi"³⁷ sifatida ta'riflanadi.

Bizningcha, konseptga *tilda o'zining nomiga ega va o'ziga ma'noni, nom uchun asos bo'lgan madaniy va diniy konnotatsiyalar, tushuncha va obrazlarni qamrovchi, qisman verballashgan madaniy mazmun, lingvomenta* tuzilma deb ta'rif berish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, qadriyatlar bilan qadriyatlar falsafasi – aksiologiya (yunon. ἀξία – "qadriyat", λόγος – "ta'limot") shug'ullanadi. Ilk bor Suqrot tomonidan falsafiy negizlari yoritilgan qadriyat tushunchasi reallashgan yaxshilik, foydalilik sifatida tushuniladi. Antik davr va o'rta asrlar falsafasida qadriyatlar masalasi borliq xususidagi qarashlarga bevosita singdirilgan: borliqning tugalligi inson uchun o'zida axloqiy va estetik ideallarni aks ettiruvchi mutlaq qadriyat sifatida gavdalanadi³⁸.

³⁵Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии: Коды культуры. Изд.2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 159-160.

³⁶ Маслова В.А. Концептуальные основы современной лингвистики: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2019. – С. 137.

³⁷ Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2024. – B. 39.

³⁸ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BA%D1%81%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F> (Murojaat sanasi: 28.05.2023)

Arastu qadriyatlarni “qadrlanuvchi” (xushxulqlik, qalb, aql), “maqtovg’a sazovor” (maqtovg’a arziydigan xatti-harakatlar) va “ehtimoliy” (kuchlilik, go‘zallik, boylik, hukmronlik) turlariga tasniflaydi³⁹. Hozirda aksiologiya doirasida bir nechta mustaqil yo‘nalishlarning paydo bo‘lganini ko‘rsatish mumkin. Bular: aksiologik psixologizm (Vundt), aksiologik normativizm (Veber), aksiologik transsendentalizm (Kant), aksiologik ontologizm (Gartman)⁴⁰.

Madaniyatshunoslikda esa qadriyatlar inson faoliyatining mahsuli hisoblanib, madaniyatning o‘zi shu jamiyatdagi qadriyatlarning yig‘indisi sifatida tushunilishi keng tarqalgan. Madaniyatga madaniy meros bo‘lib qoluvchi ixtirolar, artefaktlar, axloqiy va estetik tasavvurlar, urf-odat va qadriyatlar sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Bunda jamoa, millat kashf etgan mahsulotlardan eng muhimi tildir.

Qadriyat deganda biz ma’lum bir tarixiy davr va muhitda ijtimoiy ahamiyatli bo‘lgan, ijobiy baholanuvchi, o‘ziga nisbatan intilish uyg‘otuvchi ideal hodisalarni tushunamiz. Milliy qadriyat esa millat hayotida shu talablarga javob beruvchi, ma’lum pog‘onaviylikda joylashgan, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va uning a‘zolarida ijobiy hissiyot uyg‘otuvchi mazmundir. Mazkur mazmun insonlar ongida joylashgan bo‘lib, obyekt bilan to‘qnashganda voqelanadi, shu tarzda obyektning o‘zi qadriyatli mazmunga ega bo‘ladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida “Qadriyatlarni lingvomadaniy tahlil etish muammolari” o‘rganilgan bo‘lib, qadriyatlarni o‘rganish xususida gapirish, dastavval, hozirgi zamon faniga tegishli xususiyatlarga e’tibor qaratishni taqozo etadi. Hozirgi zamon fani – postklassik ratsionallik yoki epistemologiyaning postklassik davri uchun zamin hozirlagan omillar sifatida so‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy bilishning nochiziq rivojlanish davriga kirishi, fan obyektlarining serqirra ekani bois bir obyekt turli fanlar uchun qiziqish uyg‘otishi tabiiyligi, umuman, fanlarda ushbu obyektlarni o‘rganish metodologik integratsiyalashuvni talab etishining tan olinishi bilan bog‘liqligi e’tirof etiladi.

Qadriyatlar shakllanishida til jamoasining stereotiplari asosidagi bahosi muhim. “Muloqot jarayonida borliqning u yoki bu unsuriga nisbatan baho predikatlarining qo‘llanishi ushbu madaniyatda shu unsur asosidagi konsept mavjudligining ko‘rsatkichi deb hisoblanishi mumkin”⁴¹. N.Arutyunovanning mazkur ta’rifidan konsept va qadriyatni farqlashning imkoni bo‘lmay qoladi. Darhaqiqat, ular butun-qism munosabatida: qadriyatlar xususida so‘z yuritish konsept haqida gapirish bilan barobar. Masalan, “tinchlik” yoki “vatan” kabilarni konsept ham, qadriyat ham hisoblash mumkin. Har bir qadriyat amalda konsept bo‘la oladi, lekin har bir konsept qadriyat bo‘la olmaydi. Masalan: *muhabbat, do‘stlik, ozodlik, mehnatkashlik* – bir vaqtning o‘zida ham qadriyat, ham konseptlardir, lekin *urush, o‘lim, falokat, qayg‘u* kabi konseptlar hech qachon qadriyat bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham. Demak, konseptlar doirasi qadriyatlar doirasidan ancha keng, qadriyatlar miqdori unday emas⁴². Shu bois qadriyatlarga nisbatan “qadriyatli konseptlar” atamasi ham qo‘llaniladi⁴³.

³⁹ Qarang: Сергиенко Н.А. Кўрсатилган манба. – Б. 271.

⁴⁰ Qarang: Славянские ценности в коммуникативном пространстве регионов. / Под ред. В.А. Масловой, М.В.Пименовой. – Минск: УП «Энциклопедикс», 2017. – С. 16.

⁴¹ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Шк. «Языки русской культуры», 1999. – С. 181.

⁴² Ремизова В. Ф., Костина Н. Г. Концепт VS. ценность. URL: <http://elib.osu.ru/handle/123456789/5555>

⁴³ Qarang: Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: Коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – 352 с.

Ikkinchi bobning “Til – milliy qadriyat hamda barcha qadriyatlarni voqelantiruvchi vosita sifatida” deb nomlangan uchinchi faslida tilga tadqiq obykti sifatida qaralgan bo‘lib, uning qadriyat ekani bilan birgalikda, qadriyatlarni aks ettiruvchi asosiy vosita ham ekani asoslangan.

Aksiologik baho jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy, maishiy-kundalik turmushdagi voqea-hodisalarga nisbatan subyektiv baho kategoriyasi bo‘lib, u tilda har qanday so‘z, so‘z birikmasi yoki matn ko‘rinishida ham gavdalanishi mumkin. Hodisalar qiymatini aniqlash va ularga aksiologik baho berishda qadriyat tushunchalari insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan (masalan, yomonlik-yaxshilik, ezgulik-yovuzlik, do‘stlik-dushmanlik kabi) qadriyatlarni hosil qiladi.

Ushbu faslda *til* stimul so‘ziga berilgan javob reaksiyalariga ko‘ra til vosita va boylik ekani haqidagi xulosalar bilan birga, boshqa qadriyatlar ham yuzaga chiqqan borishini kuzatdik. U bilan bog‘liq assotsiatsiyalardan *balo*, *dushman*, *tig‘dan o‘tkir* va *kulfat* reaksiyalari ko‘pchilikni tashkil etishi milliy madaniyatda tilning tiyilishi, kamgaplikning qadriyat ekanini oydinlashtira boradi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlarning voqelanish shakllarida til belgilari orqali obyektivlashish ustunlik kasb etadi. Shu bois ular lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obykti bo‘la oladi.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli “**Qadriyatlar tasnifi masalalari**” deb nomlangan bo‘lib, unda qadriyatlar amal qilish ko‘lami, hududi, guruhlar hamda unga madaniyat vakilining shaxsiy munosabatiga ko‘ra mavjud tasniflar o‘rganilgan hamda tasniflarga doir ayrim mulohazalar bildirilgan.

A.Fyodorov o‘zining “Madaniyat nazariyasi va tarixiga kirish” nomli lug‘atida milliy qadriyatlarning “*hayotiy*” (vital) (sog‘lik, xavfsizlik, avlodni davom ettirish); “*hayot mazmunini aks ettiruvchi*” (ekzistensial) yaxshilik, muhabbat, baxt, erkinlik, muloqot); *ijtimoiy-axloqiy* (halollik, beg‘arazlik, mehnatsevarlik, rahmdillik); *ijtimoiy-siyosiy* (oshkoralik, tenglik, mustaqillik); *diniy*; *utilitar* (moddiy farovonlik, mavqe, muvaffaqiyat, boylik) hamda *madaniy-estetik* (ijod, go‘zallik, ta’lim, ilm) turlarini ajratadi⁴⁴. B.Yerasov esa *vital* (hayot, sog‘lik, xavfsizlik, farovonlik); *ijtimoiy* (oilalar, tartib-intizom, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, boylik, tenglik, vatanparvarlik); *siyosiy* (erkinlik, qonun ustuvorligi, konstitutsiya, tinchlik); *axloqiy* (yaxshilik, muhabbat, g‘urur, vijdonlilik, kattalarga hurmat, bolalarga muhabbat); *diniy* (Xudo, muqaddas kitoblar, din); *estetik* (go‘zallik, did, mukammallik) qadriyatlarni ajratadi⁴⁵. G.Vejletsov tasnifida esa qadriyatlarning *ma’naviy*, *ijtimoiy*, *iqtisodiy* va *moddiy* turlari farqlangan⁴⁶.

Biz bu borada G.Vejletsovning yuqoridagi tasnifini asos qilib olib, unda ayrim o‘zgarishlar bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Avvalo, unga ko‘ra qadriyatlarning ***ma’naviy***, ***ijtimoiy***, ***iqtisodiy*** va ***moddiy*** turlari mavjud bo‘lib, ma’naviy qadriyat sifatida *axloqiy*, *estetik* va *diniy* qadriyatlar nazarda tutilmoqda. Jamiyat hayotida insonlararo munosabatlarga xizmat qiluvchi qadriyatlarga *ijtimoiy* qadriyat sifatida, boylik, farovonlik singarilar *iqtisodiy*, o‘zining moddiy ifodalovchilari obraziga

⁴⁴Фёдоров А.А. Введение в теорию и историю культуры: Словарь. – М.: Флинта: МПСИ, 2005. – С. 420.

⁴⁵Ерасов Б.С. Социальная культурология. Ч.2. – М.: АО “Аспект-пресс”, 1994. – С. 122.

⁴⁶Солонин Ю.Н., Каган М.С. Культурология: Учебник – М.: Высшее образование, 2007. – С. 140.

to'la ko'chgan – moddiylashgan qadriyatlarning barchasini (masalan, milliy kiyimlar, taomlar va sh.k.) *moddiy* qadriyat deb hisoblaymiz. Tasnif *ekzistensial* va *hayotiy* (vital) qadriyatlar bilan to'ldirilmoq'i lozim. Chunki har bir millat uchun uning mavjudligini belgilovchi *ekzistensial* qadriyat bo'lishi tabiiy, bizningcha. Shuningdek, masalan, hayot, sog'lik kabi *vital* qadriyatlarni ham inkor etib bo'lmaydi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti**” deb nomlangan bo'lib, uning “Lingvomadaniy kod va stereotiplar qadriyatlarni tavsiflash usuli sifatida” nomli birinchi faslida belgi, ramz va kod tushunchalari farqlangan, informatsiya nazariyasiga ko'ra tilning kod ekani asoslangan.

Kodlashtirilgan axborot – shifrlangan axborotdir, bunda deshifrovka yoki dekodlash bosqichi bo'lishi shart. Til semiotik nuqtayi nazardan belgi; informatsiya nazariyasiga ko'ra esa koddir. Bu borada M.L.Kovshovanning izohi diqqatga sazovor: “Semiotikada *kod* belgilar sinfini hamda ularning interpretator tomonidan “o'qilish” qoidalarini ifodalaydi, ular, o'z navbatida, u yoki bu sohadagi bilim, u yoki bu madaniyat bilan, interpretatorning kompetensiyasi bilan shartlangan bo'ladi. Shunday qilib, semiotikada *belgi* hamda uni mazmunan to'yintiruvchi, interpretator uchun shifrlangan axborotni “o'qish” imkonini beruvchi *kod* ajratiladi”⁴⁷. Madaniyat matnlari o'zida ana shu kodlarni namoyon etadi.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy kod xususida so'z yuritish uning lisoniy qobiqqa kirishi bilan bog'liq. Ularning lisoniy voqelanishi lingvomadaniy kodni yuzaga keltiradi. Buni, ayniqsa, noverbal harakat hamda uning tilda aks etishi (kelinning egilib salom berishi va “kelinsalom” so'zi, qo'lni ko'ksiga qo'yib hurmat ko'rsatish va “qo'limiz ko'ksimizda” deyish)da yaqqol tushunish mumkin.

Insoning hayot faoliyati turli kodlar orqali ifodalanadigan, ya'ni voqelangan va o'z davriga mos bo'lgan madaniy dasturlar bilan belgilanadi. Kod bunda madaniyatning “til”i, vosita vazifasini bajaradi. Bu “til” verbal belgilar qobig'iga kirsa, lingvomadaniy kodga aylanadi. Shunday bo'lsa-da, kod o'ziga ko'p yukni ololmaydi, u vositadir: kodlar qadriyatlarni voqelantiradi va uzatadi, qadriyatlar kodlarni shakllantiradi hamda ular tomonidan quvvatlanadi. Bunda olamning qadriyatli manzarasi uchun yana bir muhim masala – madaniy me'yor va stereotiplarga e'tibor orta boradi.

Qadriyatlar, madaniy me'yor va stereotiplarning munosabatini quyidagicha ifodalash mumkin: qadriyatlar madaniy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi; ijtimoiy munosabatlarda nima yaxshi, nima yomon, nima ijobiy, nima salbiy ekanini belgilaydi. Madaniy me'yorlar qadriyatlarga asoslangan holda ma'lum bir qoidalar majmuiga aylanadi, jamiyat ijtimoiy hayotini shu qoidalar asosida tartibga soladi. Stereotiplar qadriyat va madaniy me'yorlar ishtirokida shakllangan turg'unlashgan tasavvurlar bo'lib, ba'zan qaysi me'yorlarga asoslanishi jamiyatning alohida bir a'zosi uchun tushunarli bo'lmasligi ham mumkin.

Uchinchi bobning “O'zbek lingvomadaniyatining qadriyatlari tahlili” deb nomlangan ikkinchi faslida o'zbek lingvomadaniyatining *mehmondo'stlik*,

⁴⁷Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.

mehnatsevarlik, vatan, kattalarga hurmat, yaxshilik, g'urur, sabr, ibodat, shukronalik kabi ma'naviy qadriyatlari; *do'stlik, oila* kabi ijtimoiy qadriyatlar; *farzand* ekzistensial qadriyati; *boylik, farovonlik* kabi iqtisodiy qadriyatlar; *sog'lik* hayotiy qadriyati va, albatta, moddiy qadriyatlardan *osh* (palov) qadriyati tavsiflangan va ular orqali milliy madaniy me'yor va etnik stereotiplar aniqlangan.

Bunda qadriyatlarni tahlil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan:

Lisoniy aspekt. Leksika va frazeologiyada qadriyatning nomlari, atash ma'nolari, ularning ichki shakli, ko'chishi va kengayishi masalalarini o'rganish so'zning "madaniy xotirasi" (Yan Assman termini)da yashiringan millatning idrok intizomini ko'rsatishi mumkin. Qadriyatning nomlari, ularning sinonimlari, shu sinonimlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar bilan qiziqish darkor. Chunki bir tilda absolyut sinonimlar bo'lishi dargumon. Biror konsept o'zining ko'psonli ifodalariga ega bo'lishi ham ahamiyatli. Chunki, "biror konseptning ko'p miqdordagi nominatsiyalari mavjudligi til tizimi mazkur qismining nominativ zichligidan dalolat beradi, millat ongida mazkur konseptning aktualligini ko'rsatadi"⁴⁸.

Frazeologiyada esa tahlil etilishi rejalashtirilgan qadriyat nomining qay o'rinlarda uchrab, qanday ijobiy yoki salbiy ma'nolar tashiyotganini o'rganish, undagi kod vazifasida kelgan obrazlar nimalardan iborat ekanligini bilish ular bilan bog'liq stereotiplarni tushunish imkonini beradi. Zero, yuqorida aytilganidek, ramziylashtirishda analogiya amal qiladi.

Madaniy-semiotik aspekt. Qadriyatlar tahlilida sof madaniy aspekt bilan ham qiziqish darkor. Har holda, madaniyat tildan alohida sistema bo'lib, bu aspektga e'tibor orqali tahlil etilayotgan qadriyatning tarixiy madaniy namoyon bo'lish shakllari, u bilan bog'liq ijtimoiy tajribalarni kuzatish mumkin. Bunda, ehtimol, ma'lum bir kult yoki odatlar kuzatilishi (masalan, mehmon kuzatishdagi xatti-xarakatlar), bayramlarda turli an'analar aks etishi mumkin. Bu ijtimoiy odatlar yoki odoblar qadriyatning o'rniga, tarixiga e'tibor qaratish imkonini beradi. Mazkur aspektni keng ma'noda tushunish lozim bo'lib, bunda umuman belgilik xarakteridagi barcha narsani e'tiborga olmoqdamiz. Masalan, yangi xonadonga kelgan kelinga beriladigan ma'lum bir buyumlar, kuyovga to'shaladigan yetti qavat to'shaklar yoki mehmonning qayerga o'tirishini ko'rsatish kabi narsa-predmet va xatti-harakatlar shular jumlasidan. Ularning barchasi ma'lum ramziy mazmun tashiydi.

Emotsional aspekt. Bunda qadriyatning voqelanish shakllari qanday emotsional munosabatga sabab bo'lishini kuzatish lozim. Zero, qadriyat o'ziga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otuvchi konseptdir. Shu nuqtayi nazardan har qanday konsept qadriyat bo'la olmaydi. Demak, mazkur aspekt aksiologik baho bilan bog'liq. Qadriyatning emotsional aspektiga e'tibor qaratish uning psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatini ochishga ham imkon beradi – u madaniyatda shaxslararo munosabatlarga ham ta'sir etadi, ularni mustahkamlaydi.

Kommunikativ aspekt. Bunda aynan biror qadriyat doirasida kuzatiluvchi verbal va noverbal ifodalar qiziqish obyekti bo'lib, masalan, ota-ona, ularga hurmat

⁴⁸ Антология концептов. Под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернина. Том 1. Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 8.

xususida xulosa berish uchun ular bilan bo‘lgan kommunikatsiyani kuzatish ma’lum tasavvurlar bera oladi.

Tarixiy aspekt. Mazkur aspekt tahlil etilayotgan qadriyatning mif va afsonalar, folklor asarlarida qay darajada aks etganini, uning uchun aksiogen vaziyat qaysi ekanini tushunish imkonini beradi. Ular muloqot chog‘ida so‘zlovchi ongiga doimiy ta’sir etadi, so‘zlovchi unga havola qiladi (*kuyovni payg‘ambarlar siylagan...; mehmonning izzati uch kun...*). Mif, afsonalar, umuman, folklor asarlari orqali qadriyatlarni tahlil etishda ularning talqini asliyatdan ancha uzoqlashgan bo‘lishi mumkinligini unutmaslik lozim.

Qiyosiy va chog‘ishtirma aspekt. Lozim bo‘lsa tahlil etilayotgan qadriyatni o‘zga madaniyatlar bilan qiyoslab yoki chog‘ishtirib o‘rganish milliy o‘ziga xoslikni aniqroq ko‘rish va bo‘rttirib ko‘rsatish uchun zarur. Ishda qadriyatlar ushbu tamoyillar asosida tahlil etilgan.

Mehmondo‘stlik. O‘zbek millatining avtostereotipiga aylangan mazkur xislat o‘zining turli voqelanish shakllariga ega. Mehmondo‘stlik bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va iboralarni o‘rganish, ularning etimologiyasini turli lug‘atlarga tayangan holda tahlil qilish ularning milliy ma’no qirralarini ochish imkonini beradi. Mehmondo‘stlik qadriyatining yadrosi *mehmondo‘st* hamda *mehmonnavoz* leksemalaridan iborat. “MEHMON (f. – mehmon, tashrif buyuruvchi) 1 To‘y, ziyofat va sh.k. munosabati bilan yo‘qlab kelgan (borgan) shaxs. 2 Majlis, yig‘ilish, kengash va sh.k.ga chetdan chaqirilgan shaxs. 3 Chetdan tashrif buyurgan, vaqtinchalik qo‘ngan shaxs”⁴⁹ ma’nolarini anglatib, yangi tug‘ilgan yoki tug‘iladigan chaqaloq ma’nosini anglatuvchi **yangi mehmon**⁵⁰ birikmasini yuzaga keltiradi. Ushbu so‘zning definitivlaridan mehmonning “vaqtincha o‘zga joyga kelgan shaxs” ma’nosi bilan birga har bir insonning bu dunyodagi hayoti vaqtincha, demak, u bu dunyoga mehmon ekanligi anglashiladi. Shuningdek, *mehmondo‘stlik* so‘ziga berilgan dastlabki izohda ‘to‘y’ va ‘ziyofat’ semalari o‘z mohiyatiga ko‘ra unda mehmonlar bo‘lishini taqozo etadi.

Mehmon so‘zining etimologiyasi forscha “ulug‘” ma’nosini anglatuvchi sifat – “*meh*”ga borib taqaladi. Unga “o‘xsha-” ma’nosini anglatadigan “manestan” fe‘lining “man” hozirgi zamon asosi qo‘shilib “*mehman*”, “*muhman*” shakllariga kelganligi aytiladi⁵¹. Sh.Rahmatullayev, o‘z navbatida, *mezbon* so‘zining etimologiyasi “*miz*” – “dasturxon yoziladigan kursi” so‘zi va “qara-” ma’nosidagi -*bon* qo‘shimchasiga borib taqalishini yozadi⁵². D.Edelman ushbu so‘z etimologiyasiga yanada aniqroq izoh beradi: “qurbonlik mahsulotlari iste’mol qilinadigan taomlanish”, “ziyofat”, “yoyilgan mato” ma’nolaridagi “*mēz*” / “*myz*” so‘ziga “qo‘riqlash, himoya qilish, g‘amxo‘rlik qilish” ma’nosidagi **pā* uzvining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan”⁵³. Muallif yana shunday izoh beradi: “ziyofat”; “noz-me’matlar qo‘yilgan, yoyilgan mato” ma’nosidan “noz-ne’matlarni tuzash”;

⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тузатилган 2-нашри. Беш жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston nashriyoti” ДУК, 2020. – Б. 586.

⁵⁰ Ko‘rsatilgan lug‘at. O‘sha bet.

⁵¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 136.

⁵² Ko‘rsatilgan lug‘at. O‘sha bet.

⁵³ Эдельман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. Том 5. – М.: Наука – Вост. лит., 2000. – С. 364; 364.

keyinchalik esa “stol” ma’nosining yuzaga kelishiga olib kelgan semantik siljishlar fors tili uchun xarakterli. Taomlar yoyilgan mato (dasturxon – F.U.) ustiga qo’yilgan, taomlanuvchilar uning atrofida o’tirgan va yonboshlagan O’rta va Markaziy Osiyo hududlarida baland stol bo’lmagan va bunday siljish tasodifiy emas”⁵⁴. Anglashiladiki, mehmonga g’amxo’rlik qilish va uni noz-ne’matlar bilan siylash ushbu so’zning madaniy xotirasiga muhrlangan.

Mehmon o’zagidan *mehmondor*, *mehmondorlik*, *mehmondorchilik*, *mehmondo’st*, *mehmondo’stlik*, *mehmonnavoz* kabi so’zlar yasalgan bo’lib, ularning barchasi ijobiy konnotatsiyaga ega. *Mehmondo’stlik*, ya’ni *mehmondo’st* ekanlik “mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yaxshi ko’radigan, mehmonsevar”⁵⁵ bo’lishni taqozo etadi. Bunda ta’rifdagi “yaxshi ko’radigan” sifati va keyingi so’zlarning tarkibidagi “-sevar” va “-do’st” komponentlari aksiologik marker maqomida bo’la oladi. Zero, do’st – “ahillik, totuvlik munosabati bilan bog’langan” etimologiyasiga ega.

Aksiologik marker qadriyatni “tanib olish” uchun qo’l keladi va lisoniy ifodalarda madaniyat qoidalarini kodlashtiradi. Ular assotsiativ aloqalar hisobiga qadriyat yoki aksqadriyatga ishora qilishi mumkin. G.Komilova “implitsit usulda voqelangan qadriyat va baho talqinlarida leksemalarning ma’lum bir semalari aksiologik markerga aylanishi”⁵⁶ni qayd etadi.

Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqolidan o’zbek oilalari mehmon kelishini haqiqatan yaxshi ko’rishi, joiz bo’lsa, uni nima bilan siylashning tashvishini qilmasligini ham tushunish mumkin. Sh.Usmonova ushbu maqol uchun asos bo’lgan odatni shunday tasvirlagan edi: “Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo’shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o’zbek xonadonlarida qo’shnilar o’rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo’yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so’rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqoli ana shu odatning ta’siri tufayli yuzaga kelgan”⁵⁷.

Yuqorida madaniy aspekt deb sanagan aspektimiz mazkur qadriyat misolida quyidagilarda namoyon bo’ladi: o’zbek oilalari mehmonni, albatta, ochiq chehra va dasturxon bilan kutib oladi; o’zi uchun qilinmagan taomlarni mehmon uchun tayyorlaydi; uning hurmati uchun jonliq so’yadi va h.k. K.Mahmudovning “Mehmonnoma” asarida o’zbek madaniyatida mehmon kutish bilan bog’liq odatlar shunday tasvirlangan: “...qadim zamonlardan buyon samarqandliklar mehmonni xuddi non-nasiba kabi hurmat qilar ekanlar. Mehmonga atab ataylab maxsus patirlar pishirilgan, nonni tayyorlaganlarida yuzini xamirdan naqshinli... qilib bezatganlar. Hatto ba’zan nonning yuziga she’riy misralar va aziz mehmonlarning nomlari bitilgan. Mehmonlar ketar paytida bayot bitilgan, chiroyli bezatilgan nonlarni ularning qo’liga tutqazishgan. Ushbu nonlarni mehmonlar e’zozlab san’at asari kabi o’z uylari devorlariga osib qo’yganlar. Yaxshi mehmondorchilikdan esdalik bo’lgan non yana bezak vazifasini bajarib turgan”⁵⁸.

⁵⁴ Эдельман Д.И. Ko’rsatilgan lug’at. – B. 365.

⁵⁵ Ko’rsatilgan lug’at. O’sha bet.

⁵⁶ Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – B. 8, 86.

⁵⁷ Usmanova Sh. Lingvokulturologiya: Darslik. – Toshkent, 2018. – B. 29.

⁵⁸ Маҳмудов К. Меҳмоннома. – Тошкент: “Ёш гвардия”, 1989. – Б. 8.

Ko'rib chiqilayotgan qadriyatning emotsional aspektini maqollar yaxshi aks ettira oladi. Ulardan aksiologik mazmunni chiqarib olish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, quyidagi maqollarda mehmonni azizlash mazmuni o'z aksini topadi: *Mehmon – atoyi Xudo; Mehmonning itini tur dema; Mehmonning oldida mushugini pisht dema; Mehmon – aziz. mezbbon – laziz; Mehmon kelgan uy – barakali; Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan; Do'stlik oltinga sotilmas, Mehmon – pulga.* Keyingi maqollarda esa mehmonning azizligi to'g'risidagi me'yor bilan birga, unga qanday e'tibor qilish to'g'risida yo'l-yo'riqlar ham mavjud: *Mezbbon borini qo'ysa, Mehmon ozga sanamas; Mehmonni siylasang, itiga suyak tashla; Mehmon joyi ko'z ustida; Mehmon izzatda, Mezbbon xizmatda; Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan; Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush; Mehmon kelsa choptirar, Bor-yo'g'ingni toptirar; Mehmon kelsa, et pishar, Et bo'lmasa, bet pishar; Mehmon ko'rki – dasturxon* (O'zbek xalq maqollari). Yuqorida keltirilganlardan mehmonga dasturxon yozish va ketar chog'ida ham quruq qo'yib yubormaslik stereotipik qoidalari anglashiladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollalohu alayhi vasallam: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, mehmonni ikrom qilsin” dedilar”⁵⁹. Mehmonning azizlanishi o'zbek tilida *mehmonday e'zozlamog* hamda *mehmonday aziz* o'xshatishlarining turg'unlashishiga sabab bo'lgan⁶⁰. Masalan: ...*Boburni uch yuztacha navkari bilan yil bo'yi mehmonday e'zozlab yurishibdi* (P. Qodirov. Yulduzli tunlar); *Xongirey bu tashrifdan norozi bo'lsa ham, uni xuddi kutilgan aziz mehmonday qarshi oldi* (T. Malik. Shaytanat).

Ushbu maqol va o'xshatishlardan o'zbek mentaliteti egasi uchun mehmon hamisha matlub ekanini tushunish mumkin. Ammo o'zbek tilida “Mehmonning izzati uch kun” iborasi ham mavjud bo'lib, uning undan ortiq qolishi noto'g'ri va yoqimsiz holatdek tasavvur uyg'otishi ham bor gap. Bu stereotipga aylangan bo'lib, bunday mazmun quyidagi maqolda ham seziladi: *Mehmonning otini asl derlar, Uch kundan so'ng sasir derlar* (O'zbek xalq maqoli). Aslida, musulmonchilik ijtimoiy odoblariga ko'ra, haqiqatan, mezbbonning va mehmonning odoblari belgilab qo'yilgan. Mezbbonning mehmonga halol va pokiza taom tortish; mehmon kutishda biror g'arazli maqsad yoki riyo bo'lmasligi; mehmonni iltifot bilan kutib olish va yaxshi joyga o'tirgizish; mehmonning qarshisida ochiq chehra bilan xushnud o'tirish kabi ko'pgina odoblari bo'lsa, mehmonning odoblari sirasiga borgan uyga kirishda mezbbonidan oldin yurmaslik, uy yoki hovliga “Bismillah”ni aytib, o'ng oyoq bilan salom berib kirish; mezbbon qaysi joyni ko'rsatsa, o'sha joyga o'tirish kabilar kiradi. Shunday odoblar bilan birga aytiladiki, “Aslida mehmonning izzati uch kundir. Bundan ortig'i mehmon uchun sadaqadir”⁶¹. “Sadaqa”ning xayr-ehson ekanligi hisobga olinsa, uning mukofoti, albatta, beriladi. Zero, “Islomda sadaqa qilishga ko'p targ'ibot qilinadi. Uning savobi, fazilati va foydasi to'g'risida Qur'on va hadislarda ta'kidlangan”⁶². Demak, “Mehmonning izzati uch kun” degani uch

⁵⁹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. – Тошкент: “Hilol-Nashr, 2024. – Б. 99.

⁶⁰ Qarang: Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 130.

⁶¹ Мехмон ва меzbоннинг одоблари / Омина журнали. 1434, Ражаб, 5-сон. – Б. 27.

⁶² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўн икки жилдлик. 7-жилд,– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 414.

kundan keyin uning ketishi shart degani emas. Uch kundan so'ng mezbон mehmonning sharoitini ta'minlagan holda o'zining odatdagi kun tartibiga qaytadi. O'z navbatida, "Biror kishining xonadonida mehmon bo'layotgan kishi mezbонni qiyin ahvolga solib qo'yadigan darajada ko'p muddat qolib ketmasligi kerak"⁶³. Demak, mazkur maqollarda so'z mezbон yoki mehmondo'stlikdan ko'proq mehmonning odobi haqida ketmoqda.

Qadriyatlarining chin istiqomatgohi jamiyat, madaniyat, insonlar ongidir. Ammo ularning bari mavhum tushunchalardan iborat va voqelanish ehtiyojiga ega. Qadriyatlarining lingvomadaniy aspektini yoritish uchun, albatta, poetik matnga e'tibor berish darkor. So'z mehmondo'stlik xususida ketar ekan, o'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayevning "O'zbeklar" hikoyasida juda nochor hayot kechiradigan uy egalarining bor-yo'g'ini hasharchi talabalarni mehmon qilish uchun sarflashlari, O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida Robiya va dadasiga Husan dumaning yordami, mehmondo'stligi, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Usta Alimning tanimagan Otabekni uyiga kirgizishi kabi sahnalarning leytmotivi – o'zbekning mehmonni ulug'lashidan iborat. Birgina "O'zbeklar" hikoyasida "to'rt kishi siqilib qoladigan", "bostirmaga o'xshagan" uychada istiqomat qiluvchi, eri cho'pon, xotini esa "tong otmasdan uyg'onib, sigir sog'adigan, erini kuzatib, keyin o'rmak to'qiydigan", xullas, og'ir sharoitda kun kechiradigan o'zbek oilasining talabalarni hali quruq choy, hali tarvuz, hali non bilan mehmon qilishgani, ketar chog'ida ularni ming-ming rahmatlar bilan kuzatgani, yana bu oilaning nochorligini ko'rib, ularning uyiga borishni istamagan qahramondan "Pisand qilmadingiz bizni" deya xafa bo'lganligi aks ettirilgan. Hikoyaning so'ngida shunday satrlar bor: *"Men bu yerda oddiy jaydari, sodda o'zbekning kengligi, to'poriligini ko'rdim. Ishonasizmi, avtobusga o'tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: mana shu o'zbeklarning bag'ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim"* (Sh.Xolmirzayev. O'zbeklar). Mazkur aksiogen vaziyatdan o'zbeklar mentalitetiga xos quyidagicha ijtimoiy-axloqiy me'yorlar kelib chiqadi: 1) mehmonga katta e'tibor bilan qarash lozim, 2) unga borini berish kerak, 3) mehmon mezbонning e'tiboriga befarq bo'lmasligi kerak. Ushbu faslda, shuningdek, boshqa bir qator o'zbek milliy qadriyatlari ham shu tarzda lingvomadaniy aspektda tahlil qilingan va ularning o'zbek tili birliklarida voqe bo'lish shakllari, aksiolingvistik xususiyatlari yoritib berilgan.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi **"O'zbek lingvomadaniyati ustuvor qadriyatlarining assotsiativ tahlili"** deb nomlangan bo'lib, bunda, birinchi navbatda, "Olamning qadriyatli manzarasida normativ va maishiy ong shakllarining namoyon bo'lishi" xususida so'z yuritilgan. Zero, lisoniy shaxs tushunchasi anchagina murakkabdir. Umuman, shaxs tushunchasi ko'pgina fanlarni qiziqtiradi va ular o'zlarining maqsadlaridan kelib chiqib unga yondashadilar. Shunday yondashuvlar ta'sirida qaysi jihati ustuvorlik qilishiga qarab insonni "his etuvchi odam (ощущающий человек)", "iste'molchi odam (человек потребитель)",

⁶³ <https://islom.uz/maqola/1069?ysclid=lnwqriuxt478622108> Murojaat sanasi: 15.05.2024.

“faoliyatdagi odam (деятельностный человек)”, “dasturlangan odam (запрограммированный человек)”⁶⁴, so‘zlovchi odam (“*homo loquens*”), “lisoniy shaxs (*homo lingualis*)”⁶⁵, “so‘zlovchi shaxs (*homo verbo agens*)”⁶⁶ kabi nomlar bilan ham atash kuzatiladi.

Ushbu faslda ong shakllarining normativ va maishiy shakllari farqlanib, milliy qadriyatlar xususida obyektiv ma’lumot olish uchun normativ ong ma’lumotlariga emas, maishiy ongda tasavvurlarga asoslanish ma’qulligi dalillangan. Boisi, birinchidan, inson rasmiy-normativ qolipda yashamaydi, to‘liq normativ fikrlaydigan va hayot kechiradigan odam ham bo‘lmaydi. Lisoniy shaxs yoki lingvomadaniyat egasi, uni qanday atamaylik, o‘zigacha shakllanib ulgurgan jamoaviy mentalitet qobig‘ida yashab, mentalitet neyron tarmog‘idan o‘tgan bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli uni maishiy ong egasi deyish mumkin. **Bizni ayni shu maishiy ong egasi – lingvomadaniyatning tipik vakili ongidagi qadriyatlar, ularning iyerarxiyasi qiziqtiradi.**

“Baho vaziyatini modellashtirishda quyidagi egotsentrik so‘zlar hisobga olinishi kerak: *Men, bu/shu, shu yerda, hozir*. Bunda Men – baho subyekti, bu/shu – baho obyekti, shu yerda – baho o‘rni, hozir – baho vaqti”⁶⁷. Demak, qadriyatlarning ehtimoliy ro‘yxati bilan tanlov masalasi yengillashadi, qaysi tushunchalar ustuvorlik qilishi aniqlashadi. O‘zbekiston Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktori U.Obidxo‘jayev amerikaliklar uchun qadriyat hisoblanadigan tushunchalar keltirilgan saytning nomiga urg‘u bergan holda (saytning nomi “answering difficult questions” (“qiyin savollarga javob berish”) bu “rostdan ham juda qiyin savol” ekanini ta’kidlaydi⁶⁸. Umuman, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida qadriyatlarning implitsitligi, ularni lingvomadaniyat egasi to‘satdan sanab bera olmasligi borasidagi kuzatuvlar yetarli⁶⁹. Shu bois ularni tajribalar asosida aniqlash mumkin deb hisoblaymiz. Olingan natijalarni esa turg‘unlik kasb etgan birliklar tahlili to‘ldirishi lozim.

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli “O‘zbek milliy qadriyatlari iyerarxiyasini aniqlash tajribasi”ga bag‘ishlangan. Ushbu tajriba-so‘rovnoma quyidagi ko‘rinishga ega. Dastlab ishtirokchilar o‘zining yoshi (13-17; 18-25; 26-40; 41-55; 55dan yuqori), millati, jinsi, istiqomat qilayotgan viloyatini belgilashlari lozim bo‘lib, so‘ng birinchi – “*Iltimos, quyidagilardan siz uchun qadrli bo‘lgan va o‘zingizda ham bo‘lishini istagan to‘rtta qadriyatni belgilang*” savoliga javob variantni belgilashlari so‘ralgan. Variantlar har bir foydalanuvchiga har xil tartibda taqdim etiladi. Bu bilan dastlabki variantlarga ko‘proq e’tibor jalb bo‘lish ehtimoli yo‘qoladi. Tanlash uchun berilgan qadriyatlar ro‘yxati quyidagicha:

⁶⁴ Қаранг: Зыкова И.В. О Личности: лингвокультурологические заметки // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей/ Ред кол. М.Л. Ковшова, В.В. Красных, А.И. Изотов, И.В. Зыкова. – М.: МАКС Пресс, 2013. Вып. 46. – С. 35.

⁶⁵ Қаранг: Маслова В.А. *Homo lingualis* в культуре: Монография. – М.: Гнозис, 2007. – 320 с.

⁶⁶ Қаранг: Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: Коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – 352 с.

⁶⁷ Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: Коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 79.

⁶⁸ <https://uzdaily.uz/uz/post/8128> Murojaat sanasi: 24.02.2024.

⁶⁹ Қаранг: Сергиенко Н.А. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – В. 41-54.

- | | |
|----------------------|---|
| 1. Sog'lik | 2. Xavfsizlik |
| 3. Farzand | 4. Boylik |
| 5. Oila | 6. Yaxshilik |
| 7. G'urur | 8. Do'stlik |
| 9. Ibodat | 10. Sevgi, muhabbat |
| 11. Tinchlik | 12. Vatanparvarlik |
| 13. Taraqqiyot | 14. Vatan |
| 15. Erkinlik | 16. Sabr |
| 17. Vijdon | 18. Adolat |
| 19. Ijod | 20. Mehnat |
| 21. Omad | 22. Ona tili |
| 23. Farovonlik | 24. Shaxsiy o'sish |
| 25. Ota-onaga hurmat | 26. Boshqa (<i>yo'zish uchun bo'sh o'rin</i>) |

Ushbu bosqichda ilmiy farazlarimiz quyidagilar: qadriyat jamiyat a'zosi uchun ahamiyatli bo'lgan, insonda ijobiy tuyg'u va intilish uyg'otuvchi tushunchalardir. Shu bois "*siz uchun*" deb boshlangan savol ishtirokchining o'zini kontekstga olib kiradi; vaqtning chegaralanmaganligi va qadriyatlarni aniq ro'yxat asosida ajratish ongda ularning iyerarxiyasini teran tasavvur etish imkonini beradi; qadriyatlar iyerarxiyasi yoshga ko'ra farqlanishi mumkin. Shuningdek, mazkur tajribaning onlayn tartibda o'rkazilishi turli hudud, yosh vakillariga turli joy va vaqtda ishtirok etish imkoniyatini beradi, so'rovnomada o'tkazuvchining ta'siridan ularni xalos etadi.

So'rovnomada O'zbekistonning barcha viloyatidan 294 kishi qatnashgan. Ulardan 13 ta tojik, 2 ta qirg'iz, 5 ta qoraqalpoq hamda "boshqa millat"ni belgilagan 2 nafar, jami 22 ta ishtirokchi natijalari chiqarib tashlandi hamda o'zbek millatiga mansub 272 nafar ishtirokchining natijalari tahlil etildi.

Ushbu jadvaldan qadriyatlarga turli yosh davrlarida munosabat qandayligini tushunish mumkin. Ulardan ayrimlarini izohlaymiz: o'zbek lingvomadaniyatida *sog'lik*ka e'tibor eng past ko'rsatkich 13-17 yoshlilarda (7,7%) bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich 40-55 yosh diapazoni vakillarida (11,9%). Yosh katta bo'lgani sari *sog'lik*ka e'tibor ortishi tabiiy deb baholanishi va bunda *sog'lom* mantiq borligi rost, ammo yoshi 55 dan yuqori bo'lgan insonlarda bu ko'rsatkich 8,8%gacha pasayishini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi bu yoshdagi insonlar uchun undan muhimroq narsalar ham borligida deb taxmin qilish mumkin. Xususan, bu yoshdagilarda *oila* (13,8%) va *farzand* (10%)ga e'tibor yuqori darajada ekani, *oila* reaksiyasi 26-40 yosh diapazoni bilan bir xil bo'lsa, *dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek* (M.Yusuf) deganlaridek, *farzand* reaksiyasi barcha yosh diapazonidan yuqori. *Farzand* reaksiyasi bo'yicha kuzatishlarni yana davom ettirish shunday taassurot uyg'otadi: 13-17 yosh oralig'ida u haqda o'ylanilmaydi (0); 18-25 yosh diapazonida unga e'tibor paydo bo'ladi (2,8%), 26-40 yoshlarda yana ortadi (6,8%), 40-55 yoshlarda pasayib, 5,6%ni tashkil etadi. Biz buni shunday talqin qilamiz: bu yosh davri 26-40 yosh davridagidan ko'ra hayot shiddati biroz pasayadi, *sog'lik*dagi muammolar sabab unga e'tibor kuchayadi (7,9% dan 11,9% ga), ibodatning o'rni ortadi (7,3% dan 8,2 %ga).

Ko'rinadiki, ushbu bosqichda yuqori o'rinlarda *oila*, *ota-onaga hurmat*, *ibodat*, *sog'lik* va *tinchlik* joylashgan. Tajribaning keyingi savoli shunday qo'yilgan:

“Yuqorida berilganlar ichida **baxt** qadriyati keltirilmagan edi. Siz baxtli bo‘lishingiz uchun quyidagilardan qaysilari o‘ta muhim deb hisoblaysiz? 3 ta tushunchani belgilash mumkin”.

Bizning bu tarzda savol qo‘yishimizdan maqsad – qadriyatlar iyerarxiyasida o‘zgarish sodir bo‘lish-bo‘lmasligini tekshirish. Zero, *baxt* konsepti juda keng ko‘lamga ega bo‘lish bilan birga, anchayin mavhumligi ortidan individual tarkibga ega bo‘lishi mumkin. Uning qadriyat ekanligi shubhasiz. Har bir insonda xoh tor (*baxt* va *omadning* tenglashtirilishi) bo‘lsin, xoh keng (*baxt* deganda yuksak tuyg‘ularnigina tushunish) bo‘lsin, uning o‘rni bor. Insonning hayotdagi intilishlari cho‘qqisi ham baxtli bo‘lishdir. *Baxt* so‘ziga berilgan ta’riflarning barchasida odamning hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushalihi sifatida namoyon bo‘ladigan holati ekani anglashiladi.

Baxt konseptini tahlil qilgan S.G.Vorkachyov baxtni so‘zsiz hayotiy qadriyat yoki “superqadriyat” deb ataydi va mohiyatini “inson uchun eng oliy yaxshilik – bu baxt” g‘oyasi tashkil etuvchi evdemonizm nazariyasini eslatadi: “*Baxt* – bu har qanday odamning har qanday harakatlariga turtki beruvchi motivdir. Hattoki u o‘zini osmoqchi bo‘lsa ham”⁷⁰.

J.J.Russo aytganidek, “Har kim baxtli bo‘lishni istaydi; lekin baxtga erishish uchun baxt nima ekanini bilish kerak”⁷¹. Tajriba ishtirokchilari o‘zini baxtli deb hisoblashlari uchun ularga nimalar kerakligini bilish, fikrimizcha, ularning haqiqiy qadriyatli dominantlarini bilish bilan barobar bo‘ladi. Tanlov imkoniyatining bittaga kamayishi ularning avvalgi tanlovlarini qayta ko‘rib chiqishlariga, natijada ularning dastlabki to‘rttadan iborat tanlovlarida muqarrar o‘zgarish hosil bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, berilgan variantlardan tashqari bitta javobni yozish imkoniyati saqlanib qolingan.

1-jadval

Sinaluvchilarning “baxt” qadriyatiga oid tanlovlari

Qadriyatlar	Javoblar soni									
	Yosh diapazoni bo‘yicha									
	13-17 (13 kishi)		18-25 (80 kishi)		26-40 (92 kishi)		40-55 (67 kishi)		55dan yuqori (20 kishi)	
	javob soni	%	javob soni	%	javob soni	%	javob soni	%	javob soni	%
sog‘lik	5	12,8	31	12,9	44	15,9	27	13,4	11	18,3
oila	5	12,8	36	15,0	49	17,8	26	12,9	9	15,0
ibodat	5	12,8	31	12,9	19	6,9	14	7,0	3	5,0
farzand	0	0,0	9	3,8	25	9,1	22	10,9	4	6,7
tinchlik	2	5,1	17	7,1	26	9,4	21	10,4	10	16,7
xavfsizlik	0	0,0	0	0,0	1	0,4	4	2,0	1	1,7
shaxsiy o‘sish	1	2,6	8	3,3	5	1,8	3	1,5	0	0,0


⁷⁰ Воркачев С. Г. Концепт счастья: понятийный и образный компоненты // Известия РАН. Серия литературы и языка. 2001. Т. 60, № 6. – С. 47-58.

⁷¹ Татаркевич В. О счастье и совершенстве человека / Составление и перевод Л.В.Коноваловой. – М.: Прогресс, 1981. – С. 31.

adolat	0	0,0	5	2,1	3	1,1	4	2,0	0	0,0
vijdon	0	0,0	3	1,3	2	0,7	3	1,5	0	0,0
sevgi, muhabbat	3	7,7	28	11,7	16	5,8	10	5,0	0	0,0
sabr	2	5,1	12	5,0	10	3,6	12	6,0	5	8,3
yaxshilik	2	5,1	8	3,3	6	2,2	2	1,0	0	0,0
boylik	1	2,6	7	2,9	6	2,2	5	2,5	0	0,0
vatanparvarlik	1	2,6	0	0,0	5	1,8	2	1,0	1	1,7
vatan	0	0,0	3	1,3	5	1,8	4	2,0	3	5,0
erkinlik	4	10,3	7	2,9	8	2,9	4	2,0	1	1,7
ona tili	0	0,0	0	0,0	2	0,7	0	0,0	0	0,0
mehnat	1	2,6	2	0,8	9	3,3	4	2,0	3	5,0
omad	2	5,1	5	2,1	5	1,8	7	3,5	2	3,3
farovonlik	0	0,0	2	0,8	5	1,8	9	4,5	2	3,3
do'stlik	1	2,6	6	2,5	4	1,4	3	1,5	0	0,0
taraqqiyot	1	2,6	1	0,4	0	0,0	1	0,5	2	3,3
ijod	0	0,0	0	0,0	2	0,7	1	0,5	0	0,0
g'urur	1	2,6	2	0,8	2	0,7	2	1,0	0	0,0
ota-onaga hurmat	2	5,1	17	7,1	17	6,2	11	5,5	3	5,0
boshqa	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0

Jadvaldan birinchi ko'zga tashlanadigan jihat "boshqa" varianti bilan biror qadriyat keltirilmaganidir (dastlabki savolda *musaffo osmon*, *imon* va *maqsad jannat* deb yozilgan javoblar bor edi). Bir qator holatlarda ishtirokchilarning o'z avvalgi javoblarini qayta o'ylab ko'rgani seziladi: baxt uchun kerak deya 13-17 yoshlilar *farzand*, *xavfsizlik*, *adolat*, *vijdon*, *vatan*, *ona tili*, *farovonlik* va *ijodga* umuman o'rin bermagan; 18-25 yoshlilar *xavfsizlik*, *vatanparvarlik*, *ona tili* va *ijodga* o'rin bermagan; 26-40 yoshlilar bunda faqat *taraqqiyotni* umuman keltirmagan bo'lsa, 40-55 yoshlilar *ona tili* reaksiyasi kuzatilmagan. Tanlovdagi keskinligi bilan 55dan yuqori yoshlilar yaqqol ajralib turadi. Ular baxt uchun zarur deya *sog'lik*, *tinchlik*, *oila*, *sabr* va *farzandni* ko'p belgilashgan bo'lsa, *shaxsiy o'sish*, *adolat*, *vijdon*, *sevgi*, *muhabbat*, *boylik* kabi 9 ta tushunchadan umuman voz kechishgan. Ammo eng muhim o'zgarish *ota-onaga hurmat* variantida bo'lib, uning belgilanishi salkam ikki barobar kamayib ketgan. Xo'sh, bu qisqarishlar qaysi qadriyatlarning ortishi bilan bog'liq? Jadvaldan ko'rinadiki, *sog'lik*, *oila*, *farzand*, *sevgi-muhabbat* va *omad* reaksiyalarining salmog'i sezilarli ortgan. Bizning fikrimizcha, tajriba ishtirokchilari tanlash qiyinchiligi ortidan *ota-onaga hurmat* javobini *oila* konseptiga singdirib yuborishgan. Har holda, ota-ona oilaning eng muhim a'zolari ekani bunga imkon beradi.

Demak, *Siz baxtli bo'lishingiz uchun quyidagilardan qaysilari o'ta muhim deb hisoblaysiz?* savoliga javob berilgandan so'ng qadriyatlar iyerarxiyasining yuqori pog'onalari tarkibida birgina o'zgarish sodir bo'lgan bo'lib, dastlabki beshlikdan *ota-onaga hurmat* javob reaksiyasining o'rnini *farzand* qadriyati egallaydi. Qolgan kuchli a'zolar o'zgarishsiz: **1) oila; 2) sog'lik; 3) tinchlik; 4) ibodat; 5) farzand.** Bu yana bir bor o'tkazilgan tajriba samarador ekanini ko'rsatadi.



1-rasm

Shu o'rinda, bizningcha, muhim bo'lgan bir necha jihatlarni ta'kidlamoqchimiz: ushbu iyerarxiya, birinchidan, zamonda o'zgaruvchan, ikkinchidan, individuallikni to'liq inkor eta olmaydi, demak, mutlaq haqiqat emas. Uchinchidan, ushbu iyerarxiyaning quyi pog'onalarida joylashganlar ham o'zbek millatining qadriyatlari ekanini unutmaslik kerak. Ularning har birini maxsus o'rganish mumkin. Yana bir jihat – diniy bag'rikenglik, demokratiya, hayot kabi ko'pgina umumbashariy qadriyatlar har bir jamiyatda o'z-o'zidan mavjud bo'lishi tabiiy yoki odatiy narsalardek qabul qilinadi va alohida e'tibor tortmaydi. Jamiyatda shu qadriyatlar ta'qibga uchraganda, ularning qadri keskin oshishini aytish mumkin. Shu sababli iyerarxiyada *erkinlik* va *xavfsizlik* kabilar pastroq o'rinda joylashgan. Bundan mamlakatda bu huquqlar bilan hammasi yaxshi ekanini tushunish mumkin. Ushbu natijalar maishiy ong egasi – oddiy o'zbek kishisi mentalligidagi qadriyatlarni aniqroq ko'rsatib bera oladi.

To'rtinchi bobning so'nggi fasli "O'zbek millati ustuvor qadriyatlarining assotsiativ tahlili"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tajriba orqali aniqlangan tayanch qadriyatlar – *oila*, *sog'lik*, *tinchlik*, *ibodat* va *farzand* stimullariga berilgan reaksiyalar tahlil etilgan.

Demak, "oila" stimul so'ziga berilgan reaksiyalar soni 272 ta. Turli javob reaksiyalari 111 ta, takror javob reaksiyalari 28 ta, yakka javob reaksiyalari 83 ta, javobsiz qolgan holatlar yo'q. Bunda mazkur konsept assotsiativ maydoni yadrosi uchun eng yuqori chastotaga ega reaksiyalar olindi. Erkin assotsiativ tajribada ushbu maydon yadrosi sifatida chastotasi 2%dan yuqori bo'lgan reaksiyalar olinishi uchraydi⁷². Agar biz ham 2% lik chegara qo'ysak, bizning holatimizda ushbu assotsiativ maydon yadrosi quyidagi reaksiyalardan iborat bo'ladi: *ota-ona* – 37 marta (13,6%), *baxt* – 25 marta (9,1%), *muqaddas* – 16 marta (5, 9%), *farzand* – 16

⁷² Сермягина Е. А., Поршнева А. С. Составление ассоциативного поля концепта «семья» в русском языке путем проведения свободного ассоциативного эксперимента // Физика. Технологии. Инновации: Сборник научных трудов. – Екатеринбург: УрФУ, 2015. – Вып. 1. – С. 338.

marta (5,9%), *ota* – 11 marta (4%), *ota-onam* – 9 marta (3,3%), *sevgi* – 8 marta (2,9%), *mehr* – 7 marta (2,5%), *muqaddas dargoh* – 7 marta (2,5%), *ishonch* – 7 marta (2,5%).

Keltirilgan reaksiyalardan *oila* konseptiga munosabat mutlaq ijobiy ekani ko‘rinadi. Chekka qismdan o‘rin olgan javob reaksiyalari ham ushbu manzarani o‘zgartirmaydi. Shuningdek, uning asosiy tarkibiy tuzilishi ayon bo‘la boradi: u ota-ona va farzandlardan iborat bo‘ladi, bu oila tarkibida, albatta, farzand bo‘lishi kerak degan stereotip mavjudligini ko‘rsatadi. Qanchalik kutilmagan bo‘lmasin, ushbu konsept yadrosidan *bobo* va *buvi* so‘zlari o‘rin olmagan. Shuningdek, o‘zbeklar mentalitetida uning bir umumiy hudud – uy bilan bog‘liqligi seziladi (*muqaddas dargoh*). Reaksiyalar chastotasi oilaning asosiy shartlarini ham bildiradi: u *baxt*, *sevgi*, *mehr* va *ishonch* hukmronlik qiluvchi *muqaddas dargoh* sifatida qadrlanadi.

Qiyos uchun, rus tilida *oila* – *семья* so‘zining assotsiatsiyalaridan dastlabkilari quyidagicha: *большая* (katta); *дружная* (ahil); *дети* (farzandlar); *дом* (uy), *моя* (mening); *и школа* (va maktab); *школа* (maktab); *мама* (ona); *крепкая* (mustahkam); *счастливая* (baxtli); *любовь* (muhabbat), *распалась* (buzildi), *ячейка* (bo‘g‘in); *муж* (er)⁷³. Y. A. Sermyagina va A. S. Porshnevalar o‘tkazgan tajribada esa bu so‘zga *карьер* (karyera, martaba), *пьянство* (ichkilikbozlik), *вынужденный долг* (majburiy burch) javob reaksiyalari ham keltirilganini ko‘rsatishadi⁷⁴.

2-jadval

***Oila* konseptining assotsiativ maydoni mazmuniy uyalari**

Uyaning nomi	Reaksiyalar	Uyadagi reaksiyalar soni	Uyaning maydondagi salmog‘i %
Oila tarkibi	<i>Ota-ona, farzand, ota, ota-onam, farzandlarim, farzandlar, ayolim, otam, ona, bobo-buvi, buvim, dadam, opam</i> kabilar	103	37,8
Oilaga umumiy munosabat	<i>Muqaddas, muqaddas dargoh, baxt maskani, baxtning poydevori, vatan, vatanim, vatanning poydevori, inson hayoti davomida eng katta topgan boyligi, issiq maskan, kichik bir vatan</i> kabilar	52	19,1
Oilaning nomoddiy vazifalari	<i>Baxt, xotirjamlik, tinchlik, totuvlik, baxt va omad, baxtli yashash, baxt-u saodat, inson oilasi bilangina baxtli, kelajakka umid, tarbiya</i> kabilar	52	19,1
Oiladagi munosabatlar	<i>Sevgi, mehr, ishonch, muhabbat, hurmat, mehr-oqibat, bir-biriga o‘zaro mehr va muhabbat, bir-biriga hurmat, bir-birini tushunish, birdamlik, birlik, do‘stlik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik</i> kabilar	43	15,8

⁷³Черкасова Г.А. Русский сопоставительный ассоциативный словарь. – М.: ИЯз РАН, 2008. URL: http://it-claim.ru/Projects/ASIS/RSPAS/RAS_SAS.htm#RS92 Дата обращения: 20.04.2024.

⁷⁴ Сермягина Е. А., Поршнева А. С. Ко‘rsatilgan manba. – В. 339.

Oilaga bo'lgan ijtimoiy talablar	<i>Kichik jamiyat, vatan oiladan boshlanadi, butun, jamiyat bo'lagi, Jamiyatning bir bo'lagi, lekin jamiyatning ichidagi bir dunyo. Inson hayotidagi eng muhim kichik davlat. Ushbu davlatning o'z qonun-qoidasi mavjud bo'lib, bu narsa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham alohida belgilab qo'yilgan kabilar</i>	9	3,3
Oiladagi majburiyatlar	<i>Sabr, bir oila bo'lib telefonlarsiz dasturxon atrofida birga kechki ovqat yeyish, inson mustahkam oila qurib va uni qadrlasa, ko'p yutuqlarga erishsa, unga maroqli bo'ladi, sabr qilish, uydagilar bilan birga bir dasturxon atrofida o'tirish kabilar</i>	8	2,9
Oila konseptiga bilvosita bog'langan assotsiatsiyalar	<i>Olov, sovchi</i>	2	0,7
Oilaning moddiy vazifalari	<i>Farovonlik</i>	1	0,3

